



Болтабой
Бекматов

ШЕРЛАР

BOLTABOY BEKMATOV

SHE'RLAR

ARAFA

Bir tantana sodir bo'lajak,
Bir taraddud kezib yuribdi.
Miyig'ida kulimsiragan
Quyosh buni sezib yuribdi.

Novdalarning yuzida sepkil,
Daraxtlar ham bir taraddudda.
Sezilar bir ajib hayajon
Yo'l chetida, kallakkor tutda.

Nami qochgan to'nka ustida
Kukulashar bir juft kabutar.
Ana, hovuz ichra favvora
Hozir buyuk sirin fosh etar.

Kezar nedir qilib ovoza,
Tilsiz jarchi bahor ellari.
Sig'may ketdi qo'lqopchalarga
Xonimlarning nozik qo'llari.

Bir tantana sodir bo'lajak,
Bir taraddud kezib yuribdi.
Miyig'ida kulimsiragan
Quyosh buni sezib yuribdi.

USTA
Matnazar Abdulhakimga

1

Elkasiga g'isht mingan sayin,
Sayqallangan sayin tobora
Ustani ham ko'kka ko'tarib,
Yuksalib bormoqda minora.

Usta mohir, nigohi teran,
Usta bir hikmatni his etar
Va minorasining shaklini
Nayzaning uchiga o'xshatar.

2

Madrasaning oldida yolg'iz
Xayol surar qarigan chinor.
Vujudida yashin solgan iz,
Dovullar qoldirgan dard, g'ubor.
Tavarakda hukm surar kuz...
Yaproqlar-da za'faron, g'arib.
Mullavachchalar esa o'ysiz,
Chilim chekar tagiga borib.

GUVOH

Bugun qushim hurkdi
Parvozni tark etdi ojiza qushim
Va qo'ndi qolipning yoniga horg'in

Bugun qotillikning guvohi bo'lism
Bo'lism uyg'onishning guvohi
Dahlizdagi katta oynaga qarab

KUNGABOQAR

Quyoshga intilib bo'y cho'zdi ilhaq,
Elning nigohini jalb qilib o'zga.
Dunyoni unutdi, unutdi mutlaq,
Erdagi quyoshdek tashlandi ko'zga.

Boshini tanidi judo qildilar
Shunda etilmagan kungaboqarning.
Tishlar orasiga olib tildilar
Urug'larin, garchi to'ydirmas qorning...

QAYSAR

Seni ta'qib qilar bir umr qolip,
Ko'z ochsang, qarshingda bo'lar ko'ndalang.
Erk esa qafasga ko'nikmas g'olib
Bir qushki, boshingga qo'nolmay halak.

Daryoning ustida charx urar bu qush,
To'lqinlar qo'ynida seni kuzatar.
Qanotlari tolib borar, boyoqish,
Bir kun yiqiladi (oh, ko'zi etar!)

Sen esa suzarkan oqimga qarshi,
Qush uchun boshingni ko'tarolmaysan.
Sen-mangu qolipga ko'nikmagan shum,
Sen-sokin qirg'oqqa chiqmagan qaysar.

PICHOQ SUYAKKA ETGANDA

Pichoq suyakka etganda
Chumoli tomoshabinga aylanar
loqayd va betashvish tomoshabinga
u Ninachidek qanot chiqarib
uchib yurar bamaylixotir
Pichoq suyakka etganda
Ninachi mehnatni o'rganar
mehnat odam qilar uni bir kuni

Odamning esa suyagi yo'q
Pichoq suyagiga etmas odamning

...

Qurbaqa o'tirgan do'nglik yonidan
qanotlari yaltiratgancha
suzib o'tdi tilla baliqlar

“Vaq-vaq-vaq!” qichqirdi qurbaqa
Ammo qalqib chiqib zum o'tmay
suza ketdi do'nglikka tomon

tirmashib chiqdi-da o'rniga arang
“Vaq-vaq!” deb qo'ydi qurbaqa horg'in

YUHO

Yuho og'ziga tiqar o'n barmog'ini
birato'la yalar o'ntasini ham
baribir qanoat topolmas zarra

Nihoyasiz bir ochlik qiynar yuhoni
mol bo'lib ko'rinar yuhoga har ne
mebellar kitoblar buyumlar puldir
to'rt tomonda pulning suvrati

Yuhoning g'ori bor
borliqni yutguday besarhad bir g'or
uni to'lrimoqqa urinar yuho

Ba'zan telba bilan to'qnash kelganda
baxtdan sarmast ko'rsatar o'zini yuho
lekin kundan-kunga kattayar qorni
beso'naqaylar tobora
og'zi g'orga
ko'zlari oxurga o'xshab

Gohida oynaga boqar-da yuho
nafratlanib ketar yuholididan
va ont ichib qo'yar o'ziga o'zi
odam bo'laman der
oddiy bir odam
Tunda uni qiynar
oddiy haqiqat

“Odam aylanishi mumkin yuhoga
va lekin odamga aylanmas Yuho”